



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875

9 772181 687004

6/2024

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI



6/2024

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2024, № 6, iyun

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Moldova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Bobokalonov O.O., Jumayev A.A.	Linguistic features of phytomorphic and zoomorphic images in french and german fairy tales	3
Navruzova M.G.	O'zbek xalq ertaklarida tibbiy birliklar	9
Jonridova S.Sh.	Tilshunoslikda implikasiya masalasining o'rganilishi	13
Abdulxayrov D.P.	Ekskursiya nutqida kommunikativ ko'nikmaning roli	19
Azimova S.Kh.	Intercultural pragmatic features of speech acts of expressing "surprises" in American culture	24
Fattoyeva Z.R., Botirova F.B., Quziyeva T.F.	Qishloq xo'jaligiga oid terminlarning tuzulishiga ko'ra turlari	28
Jalilov B.H.	Ingliz internet leksikonida paydo bo'lgan neologizmlarning lisoniy tahlil	32
Kdirbaeva U.K.	Sintaktik takrorning lingvopoetik ahamiyati	37
Mansurova N.A.	Marketing va menejment terminlarining ingliz va o'zbek tillaridagi o'zlashmalari	41
Nuriddinova Sh.K.	Tibbiy eponimlarning morfologik-struktur tabiati	46
Ruziev Y.B., Qosimova Z.S.	The definition of punctuation and the role of punctuation marks in german	51
Qurbonova D.O.	Pragmatic features of advertisementy in the english language	56
Radjabquliyeva M.A.	Reklamalarning jahon va o'zbek tilshunosligida tadqiqi masalasi	60
Tilavova M.A.	Tohir Malikning "Odamiylik mulki" asarida qo'llanilgan zid ma'noli ayrim birliklar	64
Sattorova Sh.Sh.	Modallik kategoriyasining tadqiq darajasi va talqini	68
Shamsiddinov T.G'.	Political discourse as an object of linguistic research on the examples of speeches of different presidents	72
Shamsiyeva S.R.	Tilning badiiy tasvir vositalari bo'lmish metafora va metanimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	77
Karimov R.A., To'xtayev N.N.	Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning etimologik tahlili	81
Yusupova D.Y., Furqatova M.F.	Elbek – jadidlar davrida yaratilgan birinchi lug'atlar muallifi	86
Markova Y.S., Zokirova N.S.	The nature, causes and solutions of lexical problems in translation	91
Muxtorova D.F.	National-specific and culture relevant phraseological units in english and their cultural connotation	96
Samandarov R.D.	Abzaslararo bog'lanishda applikatorlarning o'rni	101
Ubaydova H.A.	Maqollardagi ichki antonimiyaning tuzilish jihatdan tadqiqi	106
Korshunova A.V.	Russian phraseological expressions with a phytonym component	111
Saidova N.A.	Frazeologik birliklarning milliy-ma'daniy xususiyatlari va ularning nazmiy va nasriy asarlarda qo'llanishi	116
Ataboyev N.B., Abdullayeva N.A.	Translation analysis of islamic terms both in english and uzbek religious texts --prophets names translation	121
Jo'rayeva M.M., Xayrullayeva U.A.	Gazeta sarlavhalarining pragmatik til vositalari (fransuz va o'zbek gazetalari misolida)	125
Axmatova I.H.	Olot tumani etnotoponimlarining semantik tahlili	129
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Rizayev N.S.	O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining jadidchilik harakati g'oyalari bilan hamohangligi (ijtimoiy – falsafiy tahlil)	135

EKSKURSIYA NUTQIDA KOMMUNIKATIV KO'NIKMANING ROLI

Abdulxayrov Dilshod Pulatovich,

Buxoro davlat universiteti nemis filologiyasi kafedrası o'qituvchisi
dilshod_ab@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada ekskursiya sohasida gid-hamroh nutqining kommunikativ ko'nikma roli haqida fikr yuritilgan. Ekskursiya tashrif buyuruvchilar oldidagi ob'ektlarni tahlil qilish va ular bilan bog'liq voqealarni mahorat bilan bayon qilish asosida diqqatga sazovor joylar, tarixiy va madaniy yodgorliklarni uslubiy tayyorlangan taqdimotidir. Har bir ekskursiya maxsus faoliyat jarayonini ifodalaydi, uning mohiyati ma'lum qonuniyatlar bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: ekskursiya jarayoni, kommunikativ jarayon, ritorik tamoyillar, madaniyatlar aro kommunikatsiya, verbal muloqot, nonverbal muloqot.

РОЛЬ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ В ЭКСКУРСИВНОЙ РЕЧИ

Аннотация. Статья посвящена значению навыков межкультурного общения в экскурсионной деятельности в сфере туризма. Перечислены важные речевые основы деятельности экскурсовода, а также уделено внимание анализу некоторых выражений, используемых гидом-сопровождающим во время экскурсии.

Ключевые слова: экскурсионный процесс, коммуникативный процесс, риторические принципы, межкультурная коммуникация, вербальное общение, невербальное общение.

THE ROLE OF COMMUNICATIVE SKILLS IN EXCURSION SPEECH

Abstract. The article is devoted to the importance of intercultural communication skills in excursion activities in the field of tourism. The important speech bases of the activity of the tour guide are listed, and attention is paid to the analysis of some expressions used by the guide-companion during the tour.

Keywords: excursion process, communicative process, rhetorical principles, intercultural communication, verbal communication, nonverbal communication.

Ma'lumki so'nggi yillarda yurtimizga tashrif buyurayotgan chet el sayyohlarning salmog'i yildan yilga oshib bormoqda. Bunda hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning salmog'i beqiyos. Hududimizga kelayotgan sayyohlar ichida nemis zabon mamlakatlardan bo'lganlarning ulushi kam emas. Shu sababli turizm sohasida malakali kadrlarga, jumladan gid-hamrohlar, turoperatorlar, tarjimonlar (aeroport, vokzal, chegara o'tish joylarida), mehmonxona va umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi xodimlarga bo'lgan ehtiyoj va ayniqsa sifatga bo'lgan talab ham o'sib bormoqda. Bu borada ularga bevosita xizmat ko'rsatadigan gid-hamrohlarning saviyasi muhim o'rin tutadi. Jumladan ularning chet tilini bilish darajasi va ma'lumotlarni mazkur tilida tushunarli va to'g'ri yetkazish muhim ko'nikmalardan biridir, chunki har bir sayyoh u tashrif buyurgan mamlakat haqidagi birinchi taassurotni avvalambor gid-hamroh orqali oladi. Gid-hamroh o'z davlatining vakili sifatida, mamlakatining imiji va umumiy suratini ochib berishda ulkan mas'uliyatga ega. Ko'pchilik ushbu kasb egalarining asosiy vazifasi sifatida ekskursiya xizmatini ko'radi. Ammo hozirgi globallashuv davrida gid-hamrohlarning kasbiy faoliyatida nafaqat ekskursiya berish balki boshqa faoliyatlar mujassamlashgan. Qolaversa ekskursiya xizmatlarini o'tkazish talablari ham o'zgargan.

Ekskursiya - bu tashrif buyuruvchilar oldidagi ob'ektlarni tahlil qilish va ular bilan bog'liq voqealarni mahorat bilan bayon qilish asosida diqqatga sazovor joylar, tarixiy va madaniy yodgorliklarni uslubiy tayyorlangan taqdimotidir. Har bir ekskursiya maxsus faoliyat jarayonini ifodalaydi, uning mohiyati ma'lum qonuniyatlar (tematik, maqsadli, vizual, hissiy, faol va boshqalar) bilan belgilanadi.

Ekskursiya jarayonida gid sayyohlarga mohiyati ochib beriladigan ob'ektlarni ko'rishga, ular haqida kerakli ma'lumotlarni eshitishga, tarixiy voqeaning yutug'i va ahamiyatini his qilishga, amaliy ko'nikmalarni egallashga va nihoyat ekskursiya objektlarini mustaqil kuzatish va tahlil qilishga yordam beradi. Bu vazifalarni bajarishda "ko'rish"ning shakllanishi muhim o'rin tutadi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda shahar ekskursiyasi, rivojlanayotgan turizm sanoatining ajralmas qismi hisoblanadi. Soha sanoatining potentsial

resurslari yurtimizdagi Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent kabi shaharlarining tarixiy diqqatga sazovor joylaridir. Plyaj turizmi yoki kurort va sog'lomlashtirish turizmidan farqli o'laroq, bizda katta potensialga ega bo'lgan madaniy turizm, ziyorat turizmi kabi sayyohlik turlari uchun ekskursiya xizmati muhim rivojlanish dastagi hisoblanadi. So'ngi yillarda ushbu xizmat ham frilanserlar, ham kompaniyalar tomonidan taklif etilmoqda. Gid-hamrohlar oliy o'quv yurtlarda yoki turizm kasb-hunar kollejlari malakaga ega bo'lishadi. Mamlakatimizda gid-hamroh mutaxassisligining rivojlanish tarixida ekskursiyani tayyorlash usullari, uni amalga oshirish texnologiyasi, tashkil etish va umuman soha mazmuniga katta e'tibor qaratildi. Ekskursiya va shahar ekskursiyasi nazariyasi bo'yicha ba'zi nashrlar chop etildi.

Ko'p odamlar ekskursiya bo'yicha gid sifatida ishlashni xohlayotgani sababli, vaziyatga oid muammolarga yechimlar va yaxshi tur yetakchiligi bo'yicha maslahatlar olishingiz mumkin bo'lgan muhim ko'rsatmalar yo'q. Har bir ekskursiya jarayoni nafaqat ma'lumotlarga boy balki qiziqarli, ya'ni maroqli bo'lishi kerak. Shuning uchun ekskursiyaning har bir qismi va umuman sayohatning o'zi ijobiy taassurotli elementga ega bo'lishi kerak.

Sayohat va ekskursiyani samarali o'tkazishda quyidagi metodik ko'rsatmalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

1. Sayyohlar bilan salomlashish va tanishish jarayonida o'tkaziladigan ekskursiyaning qiziqarli obyektlarini eslatib o'tish.

2. Har bir kun uchun dasturning bir yoki ikkita diqqatga sazovor joylarini tanlash va ushbu obyekt elementlarini oldindan bir necha marta eslatib o'tish.

"Bugun siz ayniqsa Registon maydonini ko'rishni intiqlik bilan kutishingiz mumkin. Bu, albatta, barchangiz uchun unutilmas taassurot bo'ladi.", "Unutmang, biz tushdan keyin Siyob bozoriga tashrif buyuramiz. Shaxsan men buni intiqlik bilan kutayman."

Ushbu uslubiy yondashuvlar sayyohlarning birinchidan ijobiy kayfiyatini, ikkinchidan ekskursiyaga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

3. Mehmonlarning keyingi kundagi ekskursiyaga ruhan va jismonan tayyor bo'lishlarini ta'minlash maqsadida, kun oxirida ertangi kunning eng muhim aspektlarini e'lon qilish. Shu orqali ularning navbatdagi ekskursiyaga bo'lgan qiziqishini orttirish.

"Shuni unutmang-ki hurmatli mehmonlar, bizni ertaga Qizilqum cho'liga taassurotlarga boy sayohat kutaypti. Unda biz cho'l manzarasining turli ko'rinishlari, shuningdek flora va faunasi bilan bevosita tanishamiz."

4. Har bir diqqatga sazovor joylar o'rtasida mantiqiy bog'liqlik yaratish. Yaqinlashib kelayotgan diqqatga sazovor joylarni eslatib turish orqali sayyohning qiziqishini va ishtiyoqini faollashtirish.

*"Biz hozirgina ushbu mintaqadagi islom me'morchiligining chinakam go'zal namunasi bo'lgan Bolo Hovuz masjidi tashrif buyurdik. Shuningdek, biz tushdan keyin eng muhim va eng chiroyli masjid – Masjidi Kalonni ziyorat qilamiz. **Gumbazlarning ulug'vorligi va nafisligidan hayratda qolasiz...**"*

Aynan ushbu jumla (*Gumbazlarning ulug'vorligi va nafisligidan hayratda qolasiz...*) sayyohning qiziqishi va sayohatga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

5. Mehmonlarga o'tgan kunlardagi ijobiy taassurotlarini eslatib turish.

*"**Xivadagi muhtasham saroyini eslaysizmi? U yerdagi xorazmliklarning mohir hunarmandchiligini-chi, ayniqsa, u yerdagi koshinkor peshtoqlarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldik**"*.

Ushbu misoldagi ritorik vositalar, jumladan: *... eslaysizmi?*, *–chi* yuklamasi yoki *...ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldik* tinglovchining oldingi ijobiy taassurotini eslatadi va uning kayfiyatini ko'taradi.

6. Har bir diqqatga sazovor joyning o'ziga xosligini ta'kidlash.

*"Bunday nafis va mohirona ishlangan xattotlik bezaklarini **faqat ushbu masjid peshtoqida ko'ramiz.**"*

7. Olib borilgan ekskursiya mohiyatini yanada chuqurroq anglash, his etish va ekskursiya aobyektlardan vizual zavq olish maqsadida mehmonlar uchun yetarlicha tanaffus va bo'sh vaqtni rejalashtirish.

Kommunikativ janrlar, bir tomondan, jamiyatning sub'ektiv bilimlar fondi va ijtimoiy tuzilmalari, ikkinchi tomondan, lingvistik sathda formal xususiyatlar tahlili o'rtasidagi bog'lovchi elementni shakllantiradi.

Ichki struktura umumiy stilistik birliklarni o'z ichiga oladi va bunda verbal (tipik frazeologizmlar v.h.) yoki vizual (ko'rsatuvchi imo-ishoralar v.h.) sathdagi turfa elementlar muhim rol o'ynaydi. Tashqi struktura muhit holati, ya'ni ko'rib chiqilayotgan hodisalarning situativ va institutsional doirasini, ishtirokchilar klassifikatsiyasini (jins, yosh, maqom va boshqalar bo'yicha) tanlash va ular o'rtasidagi munosabatlar shaklini anglatadi. Strukturaviy oraliq sath kommunikativ realizatsiyani shakllantiradigan tor ma'noda suhbat xususiyatlarini qamrab oladi.

Tarixiy voqelikning verbal ifodasida lisoniy jihatlar ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa bunda zamon transpozitsiyasining tutgan o'rni beqiyos. Grammatik shaklning transpozitsiyasi (boshqa ma'noda qo'llanilishi), ma'lumki, uning matnda boshqa zamon shakli o'rnida ishlatilishi bilan bog'liq. Odatda transpozitsiya jarayoni ikkita a'zo ishtirokida kechadi. Ularning birining ma'nosi ko'chib, transpozitsiyaga uchrasa ikkinchisi – transpozitsiyaga sabab bo'ladi. Bular transpozitsiyalanuvchi va transpozitsiyalovchi a'zolar deb ataladi. Bu a'zolar o'zaro aloqador bo'lib, ma'lum semantik munosabatga kirishadi. Transpozitsiyaga uchraydigan a'zo ma'nosining o'ziga xosligi uning pragmatik ma'nosiga xos bo'lmagan kontekstda qo'llanganida asosiy ma'nosining saqlab qolinishida ko'rinadi.

“Buxoro XIII asrda Chingizchon tomonidan bosib olingan bo'lib, butun shahar vayron qilingan. Lekin Minorani u vayron qilmagan. Bu haqda shunday rivoyat bor: Chingizchon minora oldiga kelganda u minoraning haybatidan hayratlangancha minoraga qaraydi va shunday deydi ...”

Ushbu matnda oxirgi gapda hozirgi zamon shakli qo'llangan bo'lsa ham ish harakatning o'tgan zamonda ro'y berganligi anglashiladi. Bu oldingi gapda qo'llanilgan o'tgan zamon shakl ta'sirida ro'y beradi. Shunga ko'ra ushbu shakl bilan ifodalangan voqea-hodisa o'tgan zamon shakliga nisbatan ancha obrazli, aniq va tinglovchi ko'z o'ngida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bu esa tasvirning pragmatik qiymatini oshiradi.

Tasvirlangan voqea-hodisa boshqa zamon va makonda ro'y bergan quyidagi matnda xuddi shunday holatni kuzatamiz. Faqat matnning o'tgan zamon qo'llangan qismida emas, hozirgi zamon ishlatilgan so'ngi ikki gapida ham voqea-hodisa sodir bo'lgan obyektiv zamon aniq ko'rsatilgan.

“...U alohida qobiliyat sohibi bo'lib, «sakkiz yoshida Qur'onni xatm qilib, qorilikka o'tgan va she'r ham ijod qila boshlagan. Chiroyli ovozi tufayli ashula aytish va ud asbobini chalishga kirishib, bu san'atda mahorat ko'rsatdi... Yosh iste'dodning ovozasini eshitgan Nasr ibn Ahmad uni Buxoroga - somoniylar saroyiga da'vat qiladi. Uning iste'dodi Buxoroda nash'u namo topadi.”

Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi zamon shakli bunday imkoniyatga, ya'ni o'tgan zamondagi ish-harakatni nutq momentida tinglovchining ko'z o'ngida ro'y berayotgandek tasvirlay olish ko'chma ma'nosida qo'llanganida hozirgi zamon ma'nosi saqlanib qolgani tufayli ega bo'ladi.

Shu munosabat bilan prof. A.I.Smirniskiyning quyidagi fikri diqqatga sazovor: Darhaqiqat, tilda bir shakl boshqasining o'rnida qo'llanishi mumkin, jumladan hozirgi zamon shakllari ham. Bunday hodisa ingliz tilida ham kuzatiladi. Biroq bunday hollarda hozirgi zamon shaklining o'z ma'nosi o'zgarmaydi, ya'ni so'zlovchi hozirgi zamon shakli kelajak va o'tmishdagi voqealarni (to'g'ri, birmuncha o'ziga xos tarzda) tasvirlasa-da, hozirgi zamon shakliligacha qolishi va faqat kelasi hamda o'tgan zamon shakllarini almashtirayotganini sezib turadi.

Ekskursiya nutqiga oid qisqa xabarli nemis-zamon mikromatnlarni tuzishda perfekt asosan ilk gaplar tarkibida uchraydi, muallif keyingi bayonda preterit shakliga o'tadi. Xuddi shunday matnlarda plyuskvamperfekt shakli taksis bog'lanishidagi zamon ifodasi uchun ma'qul ko'riladi. Buning bilan muallif bayonning bu uslubidan foydalanib, dastlabki qatorlardanoq o'quvchining diqqatini ma'lum qilinayotgan axborotga tortish maqsadini ko'zlaydi.

Shuni ta'kidlash joyizki Ekskursiyaning saviyasini ko'tarishda quyidagi uslubiy vositalarni ham qo'llash maqsadga muvofiq.

Takrorlashlar. Barcha muhim ma'lumotlar bir necha marta takrorlanishi losim. Takrorlash o'rganish qobiliyatini yaxshilaydi va mehmonlarning xotirasini faollashtiradi.

Objekt bilan bevosita aloqani o'rnatish. Ko'p diqqatga sazovor joylarda manzildan biroz oldin transport vositasidan tushib, keyin piyoda yurish mumkin. Ovqatlanish maskanida, oshpazdan mintaqa pazandachiligi haqida biror narsa aytib berishni yoki taomlarni tushuntirishni so'rash mumkin. Shahar tarixini ma'lum bir joy(maydon, yodgorlik, haykal) nuqtai nazaridan yoki oila nuqtai nazaridan aytib berish mumkin. Masjidni aylanib chiqayotganda, masjid xodimidan masjid haqida biror narsa aytishni iltimos qilish mumkin. Chinki bu orqali mehmonlar ko'rsatiladigan obyekt haqida bilvosita, ya'ni gid orqali emas balki bevosita o'sha objektning bo'lagi hisoblangan shaxsdan ma'lumot va taassurot olishadi. Gid-hamrohning vazifasi shu kabi madaniyatlararo muloqotga zamin yaratib berishdir.

Taqqoslashlar. Taqqoslash sayohatchilar ko'rganlarini yaxshiroq tushunishlari va tasniflashlari uchun muhimdir. Taqqoslash ma'lumotni yanada qiziqarli qiladi. Ushbu uslubiy vosita quyidagi jihatlarini yoritishda qo'llanilishi mumkin:

Ikki hududdagi kundalik hayot

“Har oqshom shu maydonda qishloq erkaklari uchrashadi. Joylar biz uchun Germaniyadan ko'ra muhimroq.”

Ikki hudud tarixi

— Yevropada hali podshohlar va knyazlar hukmronlik qilganda, birinchi xalq vakillik organi bu yerda allaqachon saylangan edi.

Boshqa mamlakatlardagi mashhur binolar

"Bu yerdagi bino sizga Rimdagi Panteonni eslatishi mumkin."

Ikki hududdagi mehnat sharoitlari yoki ijtimoiy tizim

"O'rtacha bu erda odamlar Germaniya yoki Evropaga qaraganda ancha uzoqroq ishlaydi." "Bu erda arvohlarga bo'lgan e'tiqodni katolik cherkovidagi avliyolar bilan solishtirish mumkin."

O'xshashlik va farqlarni sanab o'tish.

Madaniy farqlar va o'xshashliklarni ko'rsatish orqali mamlakatni va uning aholisini yaxshiroq tanishtirish mumkin.

Barcha his-tuyg'ularga murojaat qiling

Har bir tashrif uchun ma'lumot muhimdir. Ammo tashrif faqat his-tuyg'ularni va tajribalarni etkaza olsangiz yaxshi bo'ladi. Gid barcha his-tuyg'ularni jalb qilishga va sayohatchilarning idrokini keskinlashtirishga harakat qilishi kerak.

Ekskursiya nutqi tushunish oson, jonli va hayajonli bo'lishi kerak. Ekskursiya gid ma'ruzasining muvaffaqiyati nafaqat mazmuniga, balki uning shakliga ham bog'liq.

Ekskursiya nutqi universitet ma'ruzasiga o'xshamasligi kerak. Mehmonlar ekskursiya obyektidan birinchi navbatda ruhiy va madaniy ozuqa olishni, uni o'z ongida saqlashni xohlaydi. Ular qiziqarli va mazmunli ma'ruzalarni eshitishni xohlaydi. Shuning uchun yaxshi taqdimot 20 daqiqadan ortiq davom etmasligi kerak. Agar undan keyin ishtirokchilarning qiziqishi ayniqsa yuqori bo'lsa, guruh bilan qiziqarli suhbat beixtiyor cho'zilishi mumkin. Yoki keyinroq ushbu mavzu bo'yicha ikkinchi ma'ruza qilinishi mumkin.

Ekskursiya nutqida sana va raqamlarni kamroq ko'rsatish maqsadga muvofiq. Ko'p tinglovchilar bundan zerikadi. Ammo qiziqqan mehmonlar uchun gid bunday ma'lumotlarni alohida varoqda chop etib ma'ruzadan so'ng tarqatishi mumkin.

Ma'ruzaning samarali strukturasi quyidagicha bo'ladi:

Kirish qismi - taxminan 3 daqiqa.

Mavzuga intellektual eshik ochadi: Gazeta maqolasidagi sarlavha kabi qiziqish uyg'otadi. Bunga misol sifatida qisqa hikoya, gid hayotidan voqea, she'r yoki savolni kiritish mumkin.

Asosiy qism - taxminan 15 daqiqa.

Mavzuning ma'lumotini o'z ichiga oladi: Odatda aytiladigan vaqtdan ko'ra ko'proq narsa borligi sababli, ekskursovod mavzuning asosiy nuqtalariga e'tibor qaratadi. Ko'p sana va raqamlarni sanab o'tmaydi.

Yakuniy qism - taxminan 3 daqiqa.

Ma'ruza yakuni eslab qolish uchun muhim. Ushbu qism qisqa takrorlash va xulosani o'z ichiga oladi. Shuningdek tinglovchidan so'rash mumkin:

Siz hamma narsani tushundingizmi? Yana savollaringiz bormi?

Muxtasar qilib aytganda gid-hamroh til va muloqotning ahamiyati va ularorasidagi munosabatni tushunishi kerak. Gidning ma'ruzasi maqsadli faoliyat bo'lib, uning sifatiga til mahorati bilan erishiladi. Ekskursiyaning muvaffaqiyati kommunikativ ko'nikmalarini oshirishning qaysi jihatlarga e'tibor berishiga bog'liq bo'lib, doimiy amaliyot uning muhim omil hisoblanadi. Biri uchun bu bilimlarni uzatishning turli kommunikativ shakllarini egallash, ikkinchisi uchun bu tildagi xatolarni bartaraf etish, ko'pchilik uchun bu nutqdagi nuqsonlarni yo'q qilishdir.

ADABIYOTLAR:

1. Abdulxayrov D. Die rolle der kommunikativen fertigkeiten des reiseleiters in der stadtführung //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2024. – T. 47. – №. 47.
2. Abdulxayrov D. Die entstehung der semantischen schattierungen von den lehnwörtern //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2021. – T. 2. – №. 6.
3. Abdulxayrov D. Methodische grundsätze der stadtführung //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – T. 43. – №. 43.
4. Abdulxayrov D. Nemis tili so'z boyligining oshishida sharq tillarining o'ri //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – T. 13. – №. 13.
5. Dagmar Schreiber. Reiseführer Zentralasien: Auf der Seidenstraße durch Kasachstan, Kirgistan, Usbekistan, Tadschikistan und Turkmenistan. Mit herausnehmbarer Übersichtskarte. Berlin: Trescher Verlag, 2019

6. Judith Peltz. *Usbekistan entdecken: Entlang der Seidenstraße nach Samarkand, Buchara und Chiwa*. Berlin: Trescher Verlag, 2007
7. Marcella Costa, Bernd Müller-Jacquier *Deutschland als fremde Kultur: Vermittlungsverfahren in Touristenführungen*. München 2010
8. Ruziev Y., Abdulxazrov D. *Handbuch für Reiseleiter: Methodisches Lehrwerk zur Durchführung der Qualifikationspraxis für die Studierenden des Fachbereichs für Deutsch*. Buchara 2022
9. Ruziev Y., Khudoev S., Rakhmatov A. *The use of the past tenses in German and English* // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 61-66.
10. Ruziev Y. *Hoqardosh til-lar qurilishining bosh xususiyatlari* // *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*. – 2023. – Т. 31. – №. 31.
11. Fayziyev Bahodir. "Metaphors and their features of translation based on the material of the works of J. K. Rowling 'Harry Potter'". *Universal journal of social sciences, philosophy and culture*, vol. 1, no. 7, Dec. 2023, pp. 12-17, <https://humoscience.com/index.php/ss/article/view/2213>.
12. Смирницкий А.И. *Очерки по сопоставительной грамматике русского и английского языков*. -М.: Высшая школа. 1975.-380с
13. Емельянов Б.В. *Экскурсоведение*. М.: Советский спорт, 2007. 216 с.
14. Ружи́ев Я. Б. *Текстовая характеристика выражения будущего времени в немецком языке* // *Modern Scientific Challenges and Trends*. – 2018. – Т. 135.
15. *Экскурсоведение. Пособие для гида (экскурсовода)*. Республиканский научно - учебный консультинговый центр НК «Узбектуризм». Ташкент: 2009 г.